

## Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti B.Ibragimov Xorazm Ma'mun akademiyasi xodimlari bilan uchrashdi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, akademik B.Ibragimov Xorazm Ma'mun akademiyasiga tashrif buyurdi va Akademiyaning ilmiy jamoasi bilan uchrashdi. Uchrashuv davomida B.Ibragimov tadqiqotchilarga ilmiy bilimlarni ommalashtirish, doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish, xalqaro indeksli ma'lumotlar bazalariga kiritilgan jurnallarda maqolalar chop etish haqida gapirib berdi.



Xususan, 2020-yilda chet ellik o'zbek olimlari tomonidan chop etilgan maqolalarning aksariyati Scopus va / yoki Web of Science ma'lumotlar bazasidan chiqarib tashlangan jurnallarda chop etilgani, natijada bu O'zbekistonning ilmiy salohiyatiga ta'sir qilmoqda.

Uchrashuv davomida tadqiqotchilarni qiziqtirgan savollarga javoblar berildi. Asosiy e'tibor ilmiy -tadqiqot institutlarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlashga, OAK tizimidagi o'zgarishlarga, xalqaro indeksli ma'lumotlar bazasiga kiritilgan jurnallar uchun maqolalar tayyorlashga qaratildi.